

**Xudoynazarova M.A.**

**“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti**

**Maxmudov U.M.**

**“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti**

---

## **MAMLAKATIMIZ QISHLOQ XO‘JALIGI YERLARINING YAROQSIZ HOLGA KELISHINI OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligi yerlaridan noto‘g‘ri foydalanish, qonun hujjatlarining to‘g‘ri tadbiriq etish, yer resurslarining yaroqsiz holga kelishini oldini olish, mamlakatda yerlarning holatini yaxshilash vazifalari, tuproq unumdorligini pasayib ketishini oldini olish va uni oshirish masalalarini hal etish yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Tuproq, unumdorlik, antropogen, degumifikatsiya, eroziya, degradatsiya, gumus, melioratsiya, rekultivatsiya.

**Abstract:** In this article, the issues of improper use of agricultural land, correct implementation of legislation, prevention of land resources becoming unusable, tasks of improving the condition of land in the country, prevention of decrease in soil fertility and its increase are discussed. Solution is highlighted.

**Key words:** Soil, fertility, anthropogenic, dehumification, erosion, degradation, humus, amelioration, amelioration.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы нецелевого использования земель сельскохозяйственного назначения, правильного исполнения законодательства, недопущения прихода земельных ресурсов в негодность, решения задач улучшения состояния земель в стране, предотвращения и повышения плодородия почв.

**Ключевые слова:** почва, плодородие, антропогенное, дегумификация, эрозия, деградация, гумус, мелиорация, рекультивация.

Yer – xalq boyligi, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishning bosh vositasi. Yer inson hayot faoliyatining eng zarur yashash joyi, ozuqa yetishtiradigan maydoni. U turli ta’sirlar natijasida biologik buziladi, ekologik ifloslanadi va dehqonchilik borasida tuproq hosildorligi pasayadi. Tuproqning unumdorligi va ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish ko‘p jihatdan unga ehtiyotkorlik, tejamkorlik bilan munosabatda bo‘lishiga, uni yaxshilashga qaratilgan majmuasiga bog‘liq. Insoniyatning tabiat bilan doimiy munosabatlari natijasida oziq-ovqat ishlab chiqarish muammolari hal bo‘ladi. Insonlarning ishlab chiqarish faoliyati, dehqonchilik, yerga ishlov berishning ortishi, yovvoyi o‘simliklarni madaniylashtirish natijasida oziq-ovqat boyliklarini oshirish va umuman qishloq xo‘jaligida birlamchi biologik mahsulot ko‘paytirishdan iborat bo‘lib, shu asosda aholi ma’murchiligi ta’minlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi yer zaxiralaridan oqilona foydalanmaslik, meliorativ holatining yaxshilanmasligi, tuproqlar sho‘rlanishi (tuproq tarkibida tuz miqdorining me’yordan oshib ketishi), degumifikatsiyasi (tuproqning gumusni yo‘qotishi), eroziyasi (suv yoki shamol ta’sirida tuproqning yemirilishi), parchalanishi, agrokimyoviy moddalar va og‘ir metallar bilan

zaharlanishi, cho‘llanish yoki o‘ta namlanishi, qishloq xo‘jaligi bilan aloqada bo‘lmagan maqsadlar uchun yerlarning tejab-tergamasdan ajratilishi va hokazolardan muhofaza qilinmaganligi sababli ba’zi yerlar tanazzulga yuz tutgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasiga muvofiq tabiiy obyektlari, jumladan yer umumxalq boyligi va ular davlat muhofazasida turadi. Yerdan oqilona foydalanish va tuproqni muhofaza qilish, meliorativ holatni yaxshilash, tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanish alohida o‘rin tutadi.

Tuproq qatlami eng avvalo dehqonchilik, suv va o‘rmon xo‘jaligida, sanoat, qurilish, transport, aloqa xo‘jaligida, geologiya-qidiruv ishlari va boshqa ishlab chiqarish uchun qabul qilingan, yerdan oqilona foydalanish va muhofaza qilishga qaratilgan qonunlar yetarli ishlamasligi va takomillashtirilmasligi natijasida tuproq qatlamining tez buzilishi va ba’zida o‘rnini to‘ldirib bo‘lmaydigan talofatlar, tuproq inqirozi yuzaga kelishi muqarrar bo‘lib qoladi. Ekinlar ekiladigan yerlardan to‘liq va samarali foydalanishga alohida e‘tibor berish o‘z natijalarini berib, barcha turdagi ekinlarning hosildorlik darajasi ortib borishiga kafolat beradi. Yuqori miqdorda hosil olish uchun yerdan samarali foydalanib, vaqtida sifatli haydash, sara urug‘larni yangi texnologiyalar asosida ekish, parvarishlashga aloqador boshqa tadbirlarni e‘tibor bilan o‘tkazish, ekinlarga agrotexnik muddatlarda suv, o‘g‘it berish, yetishtirilgan hosilni qisqa muddatda sifatli qilib yig‘ishtirib olishga e‘tibor berish juda muhimdir. Yer resuslarini qisqa muddatda foydalanishga yaroqsiz holatga kelmasligi yerdan unumli va samarali foydalanishga, tuproq unumdorligini muntazam nazorat qilgan holda oshirib borishga, sho‘rlanish darajasining oshib ketmasligini nazorat qilishga, almashlab ekish tizimini joriy qilgan tarzda sifatli foydalanishga, tuproq eroziyasiga qarshi ixotazorlarni tashkil etishga bog‘liqdir.

Irrigatsiya eroziyasi sug‘oriladigan yerlarda uchraydi, u qishloq xo‘jalik ekinlarini noto‘g‘ri sug‘orish, ya’ni sug‘orish normasini oshirish, sug‘orish texnikasi va texnologiyasiga rioya qilmaslik oqibatida yuz beradi. Irrigatsiya eroziyasi turli relyefli yerlarda, ekinlarni egatlab sug‘orish texnikasi (egat uzunligi, chuqurligi oralig‘idagi masofa, egatlarga beriladigan suv miqdori) ning noto‘g‘ri tanlanishi oqibatida yuz beradi. Eroziya hajmi sug‘oriladigan dalalarning nishabligiga, shakliga va tuproqning xossalriga bog‘liq bo‘ladi. Irrigatsiya eroziyasini oldini olishning asosiy tadbirlaridan biri sug‘orish texnikasini to‘g‘ri belgilashdir. Bunda egat uzunligini nishablikka qarab olish kerak bo‘ladi. Bundan tashqari irrigatsiya eroziyasini oldini olish uchun asosiy shudgor qiyalikka nisbatan ko‘ndalang o‘tkazilishi, ekinlarni ekish va egatlarni olish umumiy nishablikka nisbatan qiyalatib olinishi kerak. Umuman, irrigatsiya eroziyasiga moyil yerlarda zamonaviy sug‘orish usullaridan, ya’ni tomchilatib, yomg‘irlatib sug‘orish usullaridan va suvni taqsimlash mexanizmlari bilan jihozlangan qattiq bosimli va egiluvchan quvurlardan foydalanish zarur.



### ***Sho‘rlangan va degradatsiyaga uchragan yerlar***

Mamlakatda yerlarni yaxshilashning asosiy vazifalari – tuproq sho‘rlanishi va botqoqlanishining oldini olish, qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish, suv va shamol eroziyasiga qarshi kurashish, yerlarni rekultivatsiyalash, tuproqning zichlanishi va gumus miqdorining kamayishini oldini olish, tuproq ifloslanishi, cho‘llanishiga va boshqa salbiy jarayonlarga qarshi kurashish hisoblanadi. Yerlarni rekultivatsiyalash – buzilgan yerlarning mahsuldorligini va xalq xo‘jaligi ahamiyatini tiklashga, shuningdek, atrof-muhit sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan ishlar majmuidir. Yerlarning buzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab turgan korxonalarda rekultivatsiyalash ishlari texnologik jarayonlarning ajralmas qismi bo‘lishi shart.

Tuproq unumdorligini saqlash va oshirishning asosiy omillaridan biri qishloq xo‘jaligi ekinlarini tuproqlarning ekologik-meliorativ sharoitini, uning xossa xususiyatlarini hamda hududlarning suv bilan ta‘minlanishini hisobga olib tabaqalashtirib joylashtirishdir. Ekinlarni joylashtirish tizimida tuproqlarning sifat jihatlari to‘liq hisobga olinmasa tuproqlarning unumdorligi kundankunga pasayib boraveradi. Kuchli tuproq degradatsiyasi (struktura holati, kimyoviy tarkibining yomonlashuvi va unumdorligining yo‘qotilishi) yuzaga kelishining oldini olishning yo‘llaridan biri viloyat hududlarida qishloq xo‘jalik ekinlari yerlari sifatini hisobga olib tabaqalashtirib joylashtirish texnologiyalarini to‘g‘ri amalga oshirishdir. Bu texnologiyaning mohiyati, asosiy ekinlardan olinadigan yalpi hosilni kamaytirmaydi, sifati yomon yerlarda agrotexnik, meliorativ tadbirlar asosida ularning unumdorligini qayta tiklaydi.

### **Yaxshi ishlov berilgan yerlarning hosildorligi**

Yerlarni meliorativ holatini yaxshilash orqali o‘simlik uchun zarur bo‘lgan suv, havo, issiqlik, yorug‘lik va oziqlanish rejimi to‘g‘ri ta‘minlanadi. Sug‘orish melioratsiyasi asosan namlik kam bo‘lgan hududlardan kerakli suv va u bilan bog‘liq ozuqa bilan ta‘minlash va boshqarish orqali tuproq unumdorligini oshirgan holda qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yuqori va barqaror hosil olish mumkin. Zax qochirish melioratsiyasining vazifasi ortiqcha namliq yerlarda yetarlicha suv havo va ozuqa rejimlarni ta‘minlash uchun ortiqcha suvni maydondan olib chiqishdan iborat. Bunda asosan zovurlar qazish orqali ish bajariladi. Sho‘rlanishi oshib ketgan yerlarni o‘z holatiga qaytarish va yuqori hosil olish uchun chuchuklashtirish melioratsiyasi, ya‘ni yerni sho‘rini yuvish orqali yetarli suv, havo, tuz va issiqlik bilan ta‘minlash kerak bo‘ladi.

**Xulosa.** Yuqorida keltirilgan qishloq xo‘jaligiga tegishli yerlarda amalga oshirilayotgan meliorativ tadbirlar, rekultivatsiyalash singari yerning holatini yaxshilashga va muntazam ravishda yuqori miqdorda hosil olishga qaratilgan tadbirlar tizimli va tartibli ravishda olib borilgan holatdagina ko‘zlangan natijaga erishish mumkin bo‘ladi. Buning uchun avvalo yerlarning holatini o‘z holatida saqlashga qaratilgan tadbirlarni to‘g‘ri va izchil amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Eroziyaga uchragan, sho‘rlangan, cho‘llangan yerlarni hosildor holatga qaytarish uchun belgilangan hamda amaliyotdan o‘tgan tajribalar asosida izchil amalga oshirish zarur. Eng avvalo, foydalanilayotgan yerni yaroqsiz holga kelib qolishini oldini olish kerak. Chunki yaroqsiz yerni tiklash uchun ancha vaqt va mablag‘ sarf etiladi. Shunday ekan, har bir fermer o‘z yeridan muntazam va unumli hosil olmoqchi bo‘lsa, yerga nisbatan juda e‘tiborli hamda o‘z farzandidek munosabatda bo‘lishi lozim. Shundagina ko‘zlangan maqsadga erishiladi, ya‘ni bozorlarimiz to‘kin-sochin, xirmonlarimiz donga to‘la bo‘ladi. Bu degani davlat iqtisodiyoti tobora rivojlanib boradi, xalqimiz barcha ehtiyojlari qondirilgan sharoitda yashaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A. Ergashev, T. Ergashev “Agroekologiya” Toshkent - 2006-yil;
2. U. Norqulov, X. Allanov “Qishloq xo‘jaligi melioratsiyasi” Toshkent - 2016-yil;